

ASPIRIN DO`STMI YOKI DUSHMAN

Toshmatova Nafisaxon Umidijon qizi

Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktabining 7-"V" sinf o`quvchisi

Annotatsiya: *Men quyidagi maqolamda aspirinning foydali va zararli hususiyatlari haqida so`zlab bermoqchiman.*

Kalit so`zlar: ASA, infarkt, insult, o`simta, kasmetologiya.

"Qaysi dorixonaga kirmang, albatta, "Aspirin"ni topasiz. Chunki bu dori og`riq qoldiradi, isitmani tushiradi. Shifokorlar tavsiyasi bilan infarkt, insultning oldini olishda ham bundan keng foydalanishadi. Lekin bu "mo`jiza"li dorining inson salomatligiga zarari haqida hech o`ylab ko`rganmisiz? Uni qachon, qancha miqdorda ichishni ham, surunkali kasallikka yoki nojo`ya ta`siri bor-yo`qligini hisobga olganmisiz?", — deb yozadi nashr.

Shifokorlar bemorlarning yoshiga qarab, yurak infarkti va insultlar profilaktikasi maqsadida "Aspirin" (atsetilsalitsil kislota)ni kichik miqdorda ichishni tavsiya qilishadi. U qon trombositlarining bir-biriga yopishishiga, tromb hosil bo`lishi va qon tomirlarning tiqin bilan berkilib qolishining oldini oladi. Ammo dorining uzoq vaqt davomida qo`llanilishi gemorragik insultni avj oldirar ekan. Chunki u qon tomirlar devori faoliyatini ta`minlaydigan fermentlar vazifasini cheklaydi.

SamDTI gematologiya kursi mudiri, dotsent O`tkir Dadajonov va dotsent Kattabek Abdiyevlarga ko`ra aspirinni nazoratsiz qabul qilish natijasida qon tomirlar devori sinib, yoriladi. Keksalarda qon tomirlar sinuvchan bo`ladi. Shu sabab ularning tana va qo`llari o`z-o`zidan ko`karib qoladi. Bunday bemorlarga ko`proq na`matak damlamasi qabul qilish tavsiya etiladi. Ammo tarkibida "Aspirin" bo`lgan va nospetsifik yallig`lanishga qarshi vositalarni qabul qilish tavsiya etilmaydi. Shuningdek, ularga sirka kislotasi qo`shilgan mahsulotlar iste`mol qilish ham tavsiya qilinmaydi. Chunki u organizmda "Aspirin"ga aylanadi. Qandli diabet bilan og`riqan bemorlarga ham shunday maslahat beriladi."Aspirin" me`da-ichak yarasi yoki eroziyasi, qon ketishni ham chaqiradi. U aroq, ketchup, mayonez, salatlar, shurma, xot dog, fastfudlar tanovulidan keyin qabul qilinsa, ichakdan qon ketishiga sabab bo`lishi mumkin.

Bundan tashqari Londondagi qirolicha Mariya universiteti tadqiqotchilari kelgan xulosaga ko`ra, har kuni aspirin qabul qilish oshqozon, ichak va qizilo`ngach va boshqa inson organlarining saratonga chalinish ehtimolini ancha kamaytiradi.

Professor Kuzik fikricha tadqiqot xulosalariga ko'ra, 50 yoshdagi insonlar har kuni 75milligramm aspirin qabul qilib borsa, 10 yildan keyin 1000 kishi orasida saratondan o'lganlar soni 16 kishiga kamayadi, yurak xurujidan o'lim soni bittaga kamayadi, biroq qon ketishidan o'lganlar soni ikkitaga ko'payadivg.

Amaliy qism.

Maqsad: aspirinni kosmetologiyada qazg`oqqa qarshi vosita sifatida qo`llash.

Keraklihozlar: 25millilitr shampon (istalgan), va 250ml aspirin.

Ishni bajarish ketma-ketligi. Salitsilin kislotasini kukun holatiga keltirish so`ngra aspirin va shamponni aralashtirib soch u bilan yuviladi. 3-5 daqiqadan keyin sochlar suv bilan yuvib yuboriladi.

Natija.

Soch terisini bunday oziqlantirishdan so`ng undagi barcha qazg`oq yo`qoladi.

Xulosa: Asalning ham ozi shiin deganlaridek, dori vositalarini ham me`yorida iste`mol qilgan ma`qul. Agarda aspirin qabul qilishga xohish uyg`ongan bo`lsa, eng avval shifokor maslahatini oling. Yo`qsa ichki qon ketishi va shunga o`xshash kasalliklarga chalinishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- ❖ Farmakologiya asoslari
- ❖ BBC.uz sayti
- ❖ Dori.uz sayti
- ❖ Apteka.uz